
Cho'ng'araliklar uchun yana bir qulaylik

Yangi O'zbekistonda el aziz, inson aziz!

🏡 Yurtning obodligi, xalqning farovonligi mahalla va qishloqlardan boshlanishi bor gap. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan hayotga izchil tatbiq etilayotgan "Mahallabay ishlash" tizimi bugun chekka-chekka hududlardagi aholi punktlarida barpo etilayotgan zamonaviy uy-joylar, ta'lim muassasalari, dam olish maskanlariyu qator xizmat ko'rsatish shoxobchalari yangicha qiyofasida o'zining yorqin ifodasini topmoqda.

🏡 Odamlarning hayotdan mamnunligi, shaharlardagidek qulaylik va imkoniyatlarga ega bo'lgan zamonaviy maskanlarda yashayotganidan shodonlik hissi zamirida bir haqiqat — qishloqlarni obod qilish yo'lidagi islohotlar yotibdi, desak mubolag'aga yo'ymang. Ana shunday hududlardan biri anklav hudud sanalgan — Cho'ng'ara qishlog'i bo'ladi.

🏡 Bugun yangicha qiyofa kasb etayotgan bu joylar kishida go'yo endigina paydo bo'lgandek tasavvur uyg'otadi. Ammo bu o'sha — cho'ng'araliklarning qadimiy va qadrdon qishlog'i. Faqat endi u zamonaviy ko'rinishda, barcha qulaylik, shart-sharoitlarga ega maskanga aylanib bormoqda.

🏡 Bugungi kunda anklav hudud sanalgan Cho'ng'ara qishlog'ida "Zilol" Oilaviy shifokorlik punktida qurilish ishlari davom etmoqda. Ushbu tibbiyot muassasi cho'ng'araliklar uchun yana bir qulayliklarni keltirishi tayin. Bugun ular islohotlardan mamnun ekanliklarini ta'kidlashdan charchashmayapti.

Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati

2022-08-25 15:53:38